


V. XIZMATLAR

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 36 928 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 21 636 ta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.

2021- yil 1- oktabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 16 727 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 52,4 %ni tashkil etdi.

**2021- yil 1- oktabr holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %**



2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (47,2 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o‘shishiga ta‘sir ko‘rsatdi. Ularning ulushi 8,3 %ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko‘rsatuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,5 %ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,0 %ni tashkil etdi.

2021- yil 1- oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 9 434,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,5 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (31,8 %), transport xizmatlariga (22,1 %), moliyaviy xizmatlarga (17,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (4,7 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, %**



2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 2 102,9 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2021- yil yanvar-avgust oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 1313,9 mlrd. so'mga ko'paydi.

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (420,1 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (297,8 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (242,3 mlrd. so'mga), hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (33,7 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2020- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar – 425,5 mlrd. so'mga, savdo xizmatlari – 573,8 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 512,2 mlrd. so'mga va ta'lim sohasidagi xizmatlar – 121,4 mlrd. so'mga oshgan.

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
Xizmatlar – jami	9 434,1	118,5
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	438,8	120,3
moliyaviy xizmatlar	1 613,4	132,8
transport xizmatlari	2 082,0	119,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 992,9	117,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	257,8	104,7
savdo xizmatlari	3 002,5	110,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	239,5	120,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	323,7	155,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	121,4	121,1
ijara xizmatlari	248,6	121,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	320,7	119,2
shaxsiy xizmatlar	311,7	117,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	105,2	104,4
boshqa xizmatlar	368,8	104,8

Eng yuqori o'rish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlarida 155,5 %, moliyaviy xizmatlarda 132,8 %, ijara xizmatlarida 121,5 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 121,1 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o'rish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari 104,7 %, savdo xizmatlar 110,8 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 104,4 % va boshqa xizmatlari 104,8 % da kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 31,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 22,1 %, moliyaviy xizmatlar 17,1 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 4,7 % egallaydi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 3 002,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 573,8 mlrd. so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.


2021- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 84,8 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 10,6 % ga yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda

avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,6 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %




2021- yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 438,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi davrga nisbatan o'sishi 54,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 95,9 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,3 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,7 % ga to'g'ri keladi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 613,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 132,8 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (86,4 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter

texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 323,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 155,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 257,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,7 % ga yetdi.


**2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyat	9 434,1	118,5
Qarshi sh.	2 545,3	118,3
Shahrisabz sh.	539,7	121,9
G'uzor	456,4	116,7
Dehqonobod	310,7	112,5
Qamashi	439,2	117,4
Qarshi	511,1	126,4
Koson	656,7	117,5
Kitob	661,0	118,2
Mirishkor	360,2	116,8
Muborak	470,0	111,1
Nishon	350,6	117,0
Kasbi	392,6	120,1
Chiroqchi	578,6	118,7
Shahrisabz	689,0	123,7
Yakkabog'	473,4	118,9

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (2 545,3 mlrd. so'm), Shahrisabz (689,0 mlrd. so'm), Kitob (661,0 mlrd. so'm), Koson (656,7 mlrd.so'm) va Chiroqchi (578,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (360,2 mlrd. so'm), Nishon (350,6 mlrd. so'm) va Dehqonobod (310,7 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori o'sish sur'atlari Qarshi tumani – 126,4 %, Shahrisabz tumani – 123,7 %, Shahrisabz shahrida – 121,9 % va Kasbi tumani – 120,1 % kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (27,0 %), Shahrisabz (7,3 %), Kitob (7,0 %), Koson (7,0 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mirishkor (3,8 %), Nishon (3,7 %) va Dehqonobod (3,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har chorakda o'sishi kuzatilmoqda. 2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan hajm 583,8 ming so'mga oshib, 2 806,0 ming so'mga teng bo'ldi.

Tumanlar orasida bu ko'rsatkich Qarshi shahrida 1899,8 ming so'mdan, Chiroqchi tumanida 278,3 ming so'mgacha oralig'ida farq qildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning maksimal o'sishi Qarshi (123,5 %), Shahrisabz (122,2 %), Kasbi (117,7 %) tumanlarida va Shahrisabz shahrida (120,3 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Muborak (108,8 %), Dehqonobod (110,3 %), G'uzor (114,2 %) va Mirishkor (114,4 %) tumanlarida qayd etildi.